



ZEBO MIRZO SHE‘RIYATIDA BADIY OBRAZ KO‘RINISHLARI

Usmonov Sherzod Panjiyevich,
Qarshi davlat universiteti o‘qituvchisi

DOI: <https://doi.org/10.5281/zenodo.15207234>

Annotatsiya: Maqolada she‘r-metaforaning o‘ziga xos xususiyatlari shoira Zebo Mirzo ijodi misolida tahlil qilingan. Unda she‘rning tasvir predmeti inson his-tuyg‘ulari ekanligi, inson qalbini tadqiq etishiligi aytiladi. Mashhur Aristotelning poetik obraz yaratish mahorati ham tilga olingan. Poetik metafora bilan lingvistik metafora misollar bilan solishtirilgan. Z. Mirzoning metaforik obraz yaratish mahorati misollar bilan tahlil qilingan.

Kalit so‘zlar: obraz (timsol), glossalar, metafora, poetik metafora, lingvistik (lisoniy) metafora, kompozitsion kontrast, kompozitsiya, she‘r-o‘xshatish, so‘z, so‘z birikmasi, obrazlilik, estetika, gulliver, burgut, allegoriya, tushuncha, badiiy hukm (predikat).

Biz bilamizki, har qanday she‘r obraz yaratadi, o‘z navbatida, obraz shoir uchun o‘sha his-tuyg‘uni ifodalashga, she‘rxon uchun esa qayta his qilib ko‘rishga imkon yaratadi. Xuddi shu nuqtada lisoniy metafora bilan poetik metafora orasidagi farqni ko‘rish mumkin. Poetik metafora – obraz, u lisoniy metafora kabi atashga emas, balki ifodalashga qaratilgandir. Zero, poetik metafora so‘z yoki so‘zlardan tarkib topuvchi matn bo‘lgani holda, unda ifoda so‘z (yoki so‘z birikmasi, gap, matn) vositasida emas, balki uning yordamida yaratilgan obraz orqali amalga oshadi.

Mashhur yunon mutafakkiri Arastuning uqtirishicha, agar umumiste‘moldagi so‘zlar poeziya tilining aniqligini ta‘minlasa, “glossalar, metaforalar, bezaklar... oliyanob va ulug‘vorlik kasb” etadi [1], ya‘ni kundalik nutqdan farqlaydi. Bundan ko‘rinadiki, Arastu o‘zi aytmoqchi “noodatiy so‘zlar”ni, jumladan, metaforalarni poeziya tilining belgilovchi xususiyati deb hisoblaydi va ularga g‘oyat katta ahamiyat beradi. Demak, biz oddiy haqiqat sifatida qabul qiladigan “badiiy adabiyot so‘z vositasida ish ko‘radi, so‘z vositasida ifodalaydi” degan qarashni ham shundan kelib chiqqan holda tushunish kerak bo‘ladi. Ya‘ni so‘z badiiy adabiyotda obraz yaratish vositasidirki, uning yordamida so‘z san‘atining ifoda vositasi bo‘lmish obraz yaratiladi.

Estetika va adabiyotshunoslikka oid ishlarda badiiy obrazning materiali bir tomondan real voqelik, ikkinchi tomondan ijodkor shaxsi ekanligi ta‘kidlanadi [2]. Agar metafora (hatto uning eng oddiy ko‘chim darajasidagi ko‘rinishi ham) obraz ekanligini e‘tiborda tutsak, bu gap unga ham to‘la tegishli degan xulosa kelib chiqadi. Aslida, buni Arastu yaxshi metafora yarata olish, o‘xshashlikni ko‘ra olish



iste'dodning belgisi deb hisoblaganidayoq e'tirof etgan. Chunki o'xshashlik voqelikda mavjud bo'lsa, uni ko'ra olish ijodkor shaxsi bilan bog'liq, yaxshi metafora esa shu ikkisining birligida yaratiladi. Arastu metafora yaratishni o'zgalardan o'rganib, o'zlashtirib bo'lmasligini, ya'ni buning tug'ma qobiliyat ekanligini ta'kidlaydi [3].

N.G.Arutyunova: “Metaforani yoyish, ya'ni butun jumla (yoki hatto butun she'riy matn) doirasida izchil semantik bog'liqlikni amalga oshirish, metaforani (alohida badiiy usul sifatida) obrazga aylantiradi”[4],- deb yozadi. Olimaning bu fikri mohiyatan R.Yakobsonning poeziyaning asosida o'xshashlik prinsipi yotadi va xuddi shu jihati bilan u prozaga oppozitsiyada turadi degan qarashga uyg'un. Mazkur fikrlar metafora lirik asarda ko'chimgina emas, balki lirik asarni tematik va kompozitsion jihatdan uyushtiruvchi muhim omil degan xulosaga olib boradi. Buning isbotini uslubi metaforaga moyil bo'lgan shoirlar, xususan, Zebo Mirzo ijodida kuzatish mumkin. Yaxshi ma'lumki, ijodkor individual uslubi u yaratgan asarning barcha unsurlari, barcha sathlari (tili, poetik obrazlari tizimi, kompozitsion qurilishi)da o'zini namoyon etadi. Demak, Zebo Mirzo she'riyatida ham metafora turli darajalarda: poetik ko'chim, poetik obraz va butun boshli she'r doirasida namoyon bo'lishi tabiiy. Boshqa tomondan, bunday darajalanishda quyidan yuqoriga tomon integrativ aloqa mavjud bo'ladi. Ya'ni N.G.Arutyunova nazarda tutgan “butun jumla (yoki hatto butun she'riy matn) doirasida izchil semantik bog'liqlik” metafora-ko'chimning obraz darajasidagi metafora uchun, har ikkalasining esa metafora-she'r uchun material, “g'ishtcha” bo'lib xizmat qilishini taqozo etadi.

She'riyatning tabiati o'zgarmaydi. Shoir so'z tanlar ekan, uni sayqallab, mazmunan salmoqdor, badiiy jihatdan jozibali va jarangdor bo'lishiga erishishi kerak. So'z har bir ijodkor she'riyatida chuqur ichki mazmunga, hissiy-badiiy obrazga aylanishi bilan muhim va ahamiyatlidir. Shuningdek, “...hayotiy tuyg'ular zamiriga voqe bo'lgan, chuqur fikr va samimiy hissiyotlar evaziga yaratilgan she'r”[5] kitobxonga ruhiy ozuqa va estetik zavq bag'ishlashi bilan ham alohida vazifa bajara oladi. Badiiy adabiyotda ruhiy olamdagi o'zgarishlar go'zallik qonunlari asosida ifoda etilar ekan, bu o'z o'zidan, shunchaki ro'y bermaydi. Ijodkor murakkab va ziddiyatli ruhiy to'qnashuvlarni, ijodiy qiynoqlarni qalban his qilganda, voqelikka nisbatan ijtimoiy-estetik munosabat to'la yetilganda she'r– ehtiyoj farzandi tug'iladi. Jumladan, Zebo Mirzo qator she'rlari ana shunday ehtiyoj tufayli dunyoga kelganga o'xshaydi. Uning she'rlarida ishq iztirobi shunday tasvirlanadiki, she'rlarini o'qigan kitobxon ayol qalbidagi olov taftidan “kuyib” ketadi.

**“O‘ZBEK FILOLOGIYASI:
MUAMMO VA YECHIMLAR”
mavzusidagi respublika ilmiy-amaliy anjumani**



Yolg‘izlikning girdoblarida,
Chorasizlik bo‘lganida tosh.
Mening uchun yuragingizdan,
To‘kasizmi biror tomchi yosh?
Kesib o‘tsa nigohingizni,
Muhabbatning qovjiroq labi.

Siz ham... qattiq sog‘inasizmi? Sevasizmi siz ham men kabi?[6] satrlarida shoira tuyg‘ularini kuchli lirizm orqali badiiylashtiradi. Voqelikdagi mavjud yoki o‘zaro yaqin, o‘xshash narsa va hodisalardan poetik obraz va lavhalar yaratish shoirning iste’dodiga bog‘liq. Biroq bir-biridan uzoq narsa-predmet, voqea-hodisalarni uyg‘un holatga keltirib obraz yaratish esa ijodkordan alohida mas’uliyat talab qiladi.

Zebo Mirzo lirikasida esa hissiyot dengiz kabi jo‘sh uradi. U tasavvur kuchini shunday ishga soladiki, ba’zida o‘quvchi uning she’rlarida uchraydigan tashbehlarga chindan ishonadi.

Oqqush ko‘z yoshiga yuvdim yuzimni,
Qarg‘aga tilimni berdim, siyladim.
Ketdim, daryolarga soldim izimni,

Baliqlar tilida biyron so‘zladim[7]. “...badiiy ijod jarayonida g‘oyaviy niyatning tashqi, zohiriy unsurlari emas, balki ichki botiniy jihatlari muhim, hal qiluvchi ahamiyatga ega”[8] ekanligini hisobga olsak, yuqoridagi she’rda qo‘llanilgan poetik obrazning, avvalo, qanday ma’no-mazmun ifodalayotganini tahlil qilishimiz kerak bo‘ladi. “Oqqush ko‘z yoshi”, “Qarg‘aga til berish”, “Daryoga iz solish”, “Baliqlar tilida so‘zlashi”ga lirik qahramonni nima majbur qilmoqda? U ana shunday ramziy fikrlash orqali nimani uqtirmoqchi bo‘lyapti? Bu kabi savollar barchani o‘ylantirishi tabiiy. Avvalo, she’rda qo‘llanilgan poetik ramzlarni tasniflab olsak: bizningcha oqqush, daryo, baliq obrazlari ijobiy, qarg‘a esa salbiy obraz sifatida ma’lum. Xalq qo‘shiqdarida oqqush balog‘atga yetgan go‘zal qiz, qarg‘a yomon xabarchi, daryo oshiq va ma’shuqa o‘rtasidagi chegara, visolga yetish, qizlik va ayollik chegarasi kabi talqinlarga ega[9]. Ushbu folklor an’analarini ta’sirida shakllangan poetik ramzlar orqali shoira kechinma tasvirini berar ekan, an’anaviy ma’no ko‘lamini kengaytirib, ularga yangi ma’no yuklay olgan. Shoira she’ridagi oqqushni samimiylik, sevgi ramzi, daryoni poklik, baliqni ishonch sifatida qabul qilsak, lirik qahramon samimiy, chin sevgi borligiga, dunyoda adl, pok vijdon bilan yashashiga, barchaga birdek ishonish mumkinligiga va hattoki (qarg‘a tilida gap turmaydigan kishilarga ishora)



ikkiyuzlamachi, yolg‘onchi kishilarga ishonch berib siylashiga ishonadi va ishontiradi.

Zebo Mirzo she‘rlarida psixologik portret shaxs obrazi sifatida uncha ko‘p boy ko‘rsatmaydi, balki tabiat, his-tuyg‘ularning jonli ruhiy portreti yaratilganday bo‘ladi. Ijodkorning “Tog‘ manzaralari”, “Qashqadaryosan”, “Shohi Zinda zinalarida”, “Zangor planeta” kabi qator she‘rlarida lirik psixologizmdagi portret tushunchasi joylarga o‘tadi. “Tog‘ manzaralari” she‘ridagi tasvir obyektlari umumiy qiyofa bilan yagonalik hosil qiladi. Bu qiyofa ijodkorning tasavvuridagi yagona, yaxlitlikni hosil qiladi:

O‘yinqaroq
Tog‘larning seli
Ular izlab o‘tirmas o‘zan,
O‘ngirlardan sirpanib kelib,
Chopib kelar yo‘llar izidan...[10]

Misralardagi tasvir bamisli quvnoq bolalik onlarini eslatadi, bolalarning yo‘llarda sho‘x-shodon chopib yurishi, ularning kichik yo‘llardan katta yo‘llarga chopib chiqishlari xuddi o‘ngirlardan oqib tushayotgan sellarga qiyoslanadi.

She‘riyatda kuzatiladigan ana shunday hissiy falsafiylik voqelikning abstraktlashuviga, o‘rni bilan tig‘izlashuviga, shuningdek, fikrlarning favqulodda chaqindek chaqnashiga sabab bo‘ladi. Umuman olganda, badiiy adabiyotda “...ijodkor o‘z fikrlarini ifodalovchi so‘z qidiradi; uning uchun niyatini va tuyg‘ularini aniq, ravshan yetkazib beruvchi ifoda hamda obrazni tanlashi muhim”[11]lik kasb etadi. Ijodkor borliqni sintez qilar ekan, bunda u so‘zni hissiy munosabat uyg‘otuvchi obrazga aylantirishi shart va zarurligini his etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Abdulla Oripov. Tanlangan asarlar. To‘rt jildlik. 1-4-jild. – T., Adabiyot va sanhat nashriyoti. 2000. -346 b.
2. Borev Yu. Estetika.- M.,1987.- S. 212.
3. Arastu. Poetika. Axloqi kabir. Ritorika. – T., “Yangi asr avlodi”, 2018. -352 b.
4. Арутюнова Н. Метафора и дискурс // Теория метафоры. – М.: Прогресс, 1990. – С.32. Международный научный журнал «Научный импульс» № 4 (100), часть 2 Ноябрь, 202.
5. Umurova G. Zulfiya badiiy olami va poetik maktabi: Fil.fan....dokt. (DSc) dissertatsiya. – Samarqand, 2019. – B.16.
6. Mirzaeva Z. Nur kukunlari. –Toshkent: Yangi asr avlodi, 2004.– B.14
7. Mirzaeva Z. Nur kukunlari. –Toshkent: Yangi asr avlodi, 2004. – B.44.
8. Abdulla Sher. Estetika. –Toshkent: O‘zbekiston, 2014.– B. 314
9. Turdimov Sh. Xalq qo‘shiqlarida ramz.– Toshkent:Fan,2020.– B.111
10. Зебо Мирзо. Ишк. -Тошкент: Академнашр, 2011. – Б.41.